

“Uzbek Gift Contest” ko‘rik-tanlovini o‘tkazish bo‘yicha

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasida hunarmandchilik sohasini rivojlantirish, tasviriy va amaliy san‘at sohasi vakillari hamda hunarmandlar o‘rtasida ijodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, turizm reestriga kiritilgan hunarmandlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, hunarmandchilikni turizm bilan integratsiya qilish, talabgir hamda eksportbop milliy suvenir mahsulotlarini yaratishni rag‘batlantirishga qaratilgan respublika ko‘rik-tanlovini (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

Tanlov respublika miqyosida o‘tkaziladi hamda 1-bosqichda tasviriy va amaliy san‘at sohasi vakillari, 2-bosqichda esa “Hunarmand” uyushmasining turizm reestriga kiritilgan hunarmandlar ishtirok etishi mumkin. Tanlov har yili turli hududlarda (Toshkent shahri, Buxoro, Samarqand, Xorazm va Farg‘ona viloyatlari) navbatma-navbat o‘tkazilishi mumkin. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish Turizm qo‘mitasi, “Hunarmand” uyushmasi va Badiiy akademiya, shuningdek, boshqa hamkor tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Tanlov 2 ta bosqichda tashkil etiladi: 1-bosqich iyul-avgust oylarida, 2-bosqich avgust-sentyabr oylarida o‘tkaziladi. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash marosimi 27-sentyabr kuni Butunjahon turizm kuni doirasida o‘tkazilishi ko‘zda tutiladi. Tanlovni amalga oshirish natijalari tashkilotchilar tomonidan ijobiy baholangan taqdirda, uni muntazam ravishda o‘tkazish amaliyoti joriy etiladi. Tanlov kelgusida kamida uch oy avval e‘lon qilinadi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ‘ib qilinadi.

II. Tanlovni o‘tkazish tartibi va shartlari

2.1. Tanlov quyidagi 2 ta bosqichda amalga oshiriladi:

2.1.1. 1-bosqich – iyul-avgust oylarida tasviriy va amaliy san‘at sohasi vakillari o‘rtasida suvenir mahsulotlari uchun eskiz, dizayn konsepsiyasi va mahsulot tasvirlarini ishlab chiqish bosqichi. Bunda:

- Badiiy akademiya, Turizm qo‘mitasi va “Hunarmand” uyushmasi tomonidan tanlov yo‘nalishlaridan kelib chiqib taqdim etilgan konsepsiya asosida tanlov tashkil etiladi;

- ishtirokchilar suvenir mahsulotlari uchun eskiz, dizayn konsepsiyasi va mahsulot tasvirlarini ishlab chiqadi;

- taqdim etilgan ishlar hunarmandlar tomonidan amaliy mahsulotga aylantirish imkoniyati, milliy ruh, dizayn sifati va bozorboplik talablari inobatga olingan holda Hakamlar hay‘ati tomonidan baholanadi;

– qoidaga ko‘ra, 25 ta hunarmandchilik yo‘nalishining har biri bo‘yicha eng yuqori baholangan bittadan ish saralab olinadi hamda 2-bosqichda hunarmandlarga amaliy mahsulot yaratish uchun havola qilinadi.

2.1.2. 2-bosqich – avgust-sentyabr oylarida hunarmandlar o‘rtasida, tanlangan eskiz va dizaynlar asosida amaliy suvenir mahsulotlarini yaratish bosqichi. Bunda:

- hunarmandlar tanlangan eskiz va dizaynlar asosida mahsulot ishlab chiqadi;
- hunarmandlar mahsulotni yanada mukammallashtirish yoki o‘z ijodiy g‘oyasi asosida takomillashtirish huquqiga ega bo‘ladi;
- mahsulotni takomillashtirish jarayonida uning milliy ruhiga, funksionalligiga, turistik suvenir sifatidagi jozibadorligiga hamda ishlab chiqarish imkoniyatiga e‘tibor qaratiladi;
- ishtirokchilar onlayn platforma orqali yoki “Hunarmand” uyushmasining hududiy boshqarmalariga yozma ariza berish orqali ro‘yxatga olinadi;
- yakuniy taqdimot va jonli baholash jarayonlari Hakamlar hay‘ati tomonidan o‘tkaziladi.

2.2. Tanlov quyidagi 25 ta faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladi:

1. Qo‘lda gilam to‘qish;
2. Qo‘lda gazlamalar to‘qish;
3. Tosh va suyak o‘ymakorligi;
4. Miniatyura, rang-tasvir, naqqoshlik va bo‘yoqli naqshlar tayyorlash;
5. Kandakorlik, misgarlik buyumlarini tayyorlash;
6. Metallardan buyumlar yasash;
7. Milliy poyabzal tayyorlash;
8. Milliy liboslar tayyorlash;
9. Bosh kiyimlar tayyorlash;
10. Yog‘och o‘ymakorligi;
11. Gul bosilgan gazlamalar va chokli buyumlar tayyorlash;
12. Kashtachilik;
13. Zardo‘zlik buyumlari;
14. Musiqa asboblari tayyorlash;
15. Chinni, fayans va sopol buyumlar tayyorlash;
16. Qimmatbaho metallardan zargarlik buyumlarini yasash;
17. Milliy qo‘g‘irchoq va o‘yinchoqlar tayyorlash;
18. Mayda haykaltaroshlik buyumlarini tayyorlash;
19. Charm mahsulotlarini tayyorlash;
20. Yog‘ochdan xalq hunarmandchiligi mahsulotlarini tayyorlash;
21. Novdalardan buyumlar to‘qish;
22. Esdalik buyumlarini tayyorlash;
23. Oddiy metallardan milliy uslubda taqinchoqlar yasash;
24. Makrame va qo‘lda to‘qilgan buyumlar tayyorlash;
25. Quroqchilik usulida tikish.

2.3. Tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi 27-sentabr kuni Butunjahon turizm kuni doirasida tashkil etiladi. Mazkur marosim doirasida quyidagilar tashkil etilishi mumkin:

- hunarmandlar tomonidan amaliy masterklasslar o'tkazish;
- bir xil yo'nalishdagi hunarmandlar o'rtasida ijodiy musobaqalar tashkil etish;
- tashrif buyuruvchilar uchun interaktiv o'yinlar va tanlovlar o'tkazish;
- tanlov ishtirokchilari mahsulotlarini ko'rgazma-savdo shaklida namoyish etish.

2.4. Tanlovda ishtirok etish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

- taqdim etilayotgan loyiha va mahsulotlar milliy hunarmandchilik asosida yaratilgan bo'lishi;
- loyiha va mahsulotlar turistik suvenir sifatida foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- loyiha va mahsulotlar eksportboplik va tijorat jozibadorligiga ega bo'lishi;
- tanlovga taqdim etilgan materiallarning mualliflik huquqlari Turizm qo'mitasiga o'tkazilishiga ishtirokchining rozilik bildirishi.

2.5. Tanlovni targ'ib qilish va ishtirokchilarni jalb etish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- Tanlov birinchi yilda bir oy avval, kelgusida esa kamida uch oy avval e'lon qilinadi;
- Turizm qo'mitasi, "Hunarmand" uyushmasi hamda Badiiy akademiya tomonidan ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar va OAV orqali keng targ'ibot olib boriladi;
- bloggerlar, kontent yaratuvchilar va ommaviy axborot vositalari jalb etiladi;
- ishtirokchilarni jalb qilishda keng jamoatchilik va media imkoniyatlaridan ustuvor foydalaniladi.

III. Tanlovni tashkil etish tartibi

3.1. Tanlovni tashkil etish, o'tkazish, tanlov materiallarini rasmiylashtirish va ishtirokchilar ishlarini dastlabki tashkiliy saralash Ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

Ishchi guruhning vakolat va vazifalari quyidagilardan iborat:

- tanlov hujjatlarini ishlab chiqadi va tasdiqlanishini tashkil etadi, tanlovning o'tkazilishi va yakunlari to'g'risidagi e'lon, xabar va materiallarning tayyorlanishi hamda OAVda berilishini tashkil etadi, tanlovni targ'ib qiladi;
- tanlov ishtirokchilari materiallarini Hakamlar hay'ati uchun taqdim etadi;
- tanlovning mukofot jamg'armasi va rag'batlantirish choralari tayyorlanishini tashkil etadi;
- tanlovni o'tkazish bo'yicha boshqa tashkiliy-texnik ishlarni bajaradi.

3.2. Tanlovning har ikki bosqichida taqdim etilgan ishlar Hakamlar hay'ati tomonidan baholanadi. Hakamlar hay'ati tarkibi kamida 7 nafar a'zodan iborat bo'ladi va tashkilotchilarning qarori (yig'ilish bayoni) asosida tasdiqlanadi. Hakamlar hay'ati

tarkibiga Turizm qo‘mitasi, “Hunarmand” uyushmasi, Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi hamda Badiiy akademiya vakillari, shuningdek san’atshunos, yetakchi turoperator va hunarmandchilik mahsulotlarini sotuvchi tadbirkor kiritiladi.

3.3. Tanlov g‘oliblari Hakamlar hay’ati tomonidan har bir bosqich bo‘yicha belgilangan mezonlar asosida aniqlanadi. Agar 1-bosqichda ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha yetarli darajada sifatli ishlar taqdim etilmasa yoki arizalar kelib tushmasa, mazkur yo‘nalishlar uchun ajratilgan mukofotli o‘rinlar Hakamlar hay’ati qarori bilan boshqa yo‘nalishlarda yuqori baholangan ishlarga qayta taqsimlanishi mumkin.

3.4. Hakamlar hay’ati a’zolaridan ishtirokchilarning ijodiy ishlarini baholashda obyektiv va prinsipial yondashish, Tanlov natijalarini g‘oliblarni mukofotlash marosimi to‘liq o‘tgunga qadar sir saqlash talab etiladi. Hakamlar hay’atining qarori qayta ko‘rib chiqilmaydi.

IV. Tanlovda ishtirok etish tartibi hamda baholash mezonlari

4.1. Tanlov ishtirokchilari va tanlov materiallari

1-bosqichda tasviriy va amaliy san’at sohasi vakillari, 2-bosqichda esa “Hunarmand” uyushmasining turizm reestriga kiritilgan hunarmandlar belgilangan tartibda onlayn platforma orqali ro‘yxatdan o‘tadi hamda o‘z loyihalari yoki mahsulotlarini taqdim etadi. Ishtirokchilarning loyihalari va mahsulotlari Tanlov doirasida ko‘rib chiqiladi hamda baholanadi.

Tasviriy va amaliy san’at sohasi vakillari tomonidan Tanlovga taqdim etilgan materiallar muallifga qaytarib berilmaydi. Tanlovga taqdim etilgan materiallardan Tanlov maqsadlari doirasida foydalaniladi, bunda mazkur materiallarga nisbatan mualliflik huquqlari Turizm qo‘mitasida saqlanib qoladi.

4.2. Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etiladigan loyiha va mahsulotlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- milliy hunarmandchilik an‘analari asosida yaratilgan bo‘lishi;
- zamonaviy dizayn va talablar bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi;
- turistik suvenir sifatida foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi;
- ishlab chiqarish va tijoratlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishi;
- mahsulot narxi 20 AQSH dollari miqdoridan baland bo‘lmasligi.

4.3. Baholash mezonlari

Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan loyiha va mahsulotlar 100 ballik tizimda quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- *milliylilik va autentiklik (20 ball)* – mahsulotda milliy an‘ana va uslublarning aks etishi;
- *dizayn va estetik jozibadorlik (20 ball)* – mahsulotning tashqi ko‘rinishi, badiiy yechimi va kreativligi;
- *eksportboplik (15 ball)* – xalqaro bozorlarda sotilish salohiyati;
- *innovatsion yondashuv (15 ball)* – yangi g‘oya, texnologiya yoki yechimlarning qo‘llanilishi;
- *funksionallik (15 ball)* – mahsulotdan foydalanish qulayligi;

– *tijorat jozibadorligi (15 ball)* – narx, ishlab chiqarish hajmi va bozordagi talab darajasi.

4.4. Tanlov ishtirokchilari faoliyati, loyihalari va mahsulotlari ochiq hamda shaffof tartibda baholanadi. Zaruratga ko‘ra, baholash jarayoniga mahalliy va xorijiy ekspertlar, tasviriy va amaliy san‘at sohasi mutaxassislari hamda turizm sohasi vakillari jalb etilishi mumkin.

V. Tanlov g‘oliblarini aniqlash va ularni rag‘batlantirish tartibi

5.1. Tanlov g‘oliblari Hakamlar hay‘ati tomonidan IV bobda belgilangan mezonlar asosida, 1-bosqich va 2-bosqich alohida baholanadi hamda g‘oliblar mustaqil aniqlanadi.

5.2. 1-bosqich va 2-bosqich yakunlariga ko‘ra, 25 ta faoliyat yo‘nalishi uchun ajratilgan mukofotli o‘rinlar doirasida jami 25 nafar g‘olib aniqlanadi. G‘oliblar Hakamlar hay‘ati tomonidan eng yuqori baholangan tayyor mahsulotlar orasidan belgilanadi.

5.3. Tanlov g‘oliblari quyidagi tartibda rag‘batlantiriladi:

– 1-bosqich g‘oliblari – 25 ta faoliyat yo‘nalishi uchun ajratilgan mukofotli o‘rinlar doirasida jami 25 nafar g‘olibning har biri 5 million so‘mdan pul mukofoti bilan taqdirlanadi;

– 2-bosqich g‘oliblari – 25 ta faoliyat yo‘nalishi uchun ajratilgan mukofotli o‘rinlar doirasida jami 25 nafar g‘olibning har biri 10 million so‘mdan pul mukofoti bilan taqdirlanadi;

– mahsulotlarni onlayn marketplace’larda, jumladan Etsy, Amazon va boshqa platformalarda sotuvga chiqarishda ko‘maklashiladi;

– 2-bosqich g‘oliblariga Turizm qo‘mitasi tomonidan 3 oygacha SMM, target reklama va boshqa marketing xizmatlari bo‘yicha zarur mutaxassislarni jalb etish, ularning xizmat haqi hamda qo‘shimcha xarajatlarini belgilangan tartibda qoplash orqali amaliy yordam ko‘rsatiladi;

– 2-bosqich g‘oliblari mahsulotlarini targ‘ib qilish, sotuvini yo‘lga qo‘yish hamda eksportga chiqarishda ko‘maklashiladi.

VI. Tanlovni moliyalashtirish manbalari

6.1. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek g‘oliblarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi:

– Turizm qo‘mitasi huzuridagi budjetdan tashqari turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari;

– homiylik mablag‘lari;

– xususiy sektor hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan.

6.2. Tanlov doirasida tashkil etiladigan ko‘rgazma, masterklass, ijodiy musobaqa va boshqa interaktiv tadbirlar uchun zarur xarajatlar alohida smeta asosida moliyalashtiriladi.

VII. Yakuniy qoidalar

7.1. Mazkur Nizom talablari barcha ishtirokchilar va tashkilotchilar uchun majburiy hisoblanadi.

7.2. Tanlovni o'tkazish jarayonida yuzaga keladigan masalalar tashkilotchilar tomonidan amaldagi qonunchilik asosida hal etiladi.

7.3. Nizom talablarini buzgan ishtirokchilar Tanlovdan chetlashtirilishi mumkin.

7.4. Tanlovni amalga oshirish natijalari ijobiy deb topilgan taqdirda, uni muntazam ravishda o'tkazish amaliyoti joriy etiladi.